

**STREPTOKOKK AVLODLARIDAGI (STREPTOCOCCUS MUTANTS,  
STREPTOCOCCUS VIRIDANS, VEYLONELLA) BAKTERIYALARINING OG'IZ  
BO'SHLIG'IGA TA'SIRINI O'RGANISH**

**Umarov Faxriddin Baxriddin o'g'li**

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi*

**Elmurodova Lenara Xudayberdi qizi**

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti stajyor assistant*

**Omonova Fayyoza Nizomiddin qizi**

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada normal sharoitda og'iz bo'shlig'ida mavjud bo'lgan st.mutans, st.viridans, veilonella bakteriyalarining immun sistema pasayishi natijasida patologik yallig'lanish jarayonlaridan: stomatit, tonzillit, angina, karies, gingivid kabi kasalliklarini keltirib chiqarishi. Aholi va talabalar orasida bunday kasalliklar juda ham keng tarqalganligi va bizning tadqiqotimizda bunday yallig'lanish jarayonlarini o'z vaqti oldini olish va davolash haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *stomatit, tonzillit, angina, karies, gingivid*

Tadqiqotning dolzarbligi- normal sharoitda og'iz bo'shlig'ida mavjud bo'lgan st.mutans, st.viridans, veilonella bakteriyalarining immun sistema pasayishi natijasida patologik yallig'lanish jarayonlaridan: stomatit, tonzillit, angina, karies, gingivid kabi kasalliklarini keltirib chiqaradi. Aholi va talabalar orasida bunday kasalliklar juda ham keng tarqalgan. Bizning tadqiqotimiz bunday yallig'lanish jarayonlarini o'z vaqtida oldini olish va davolashga qaratilgan.

Tadqiqotdan ko'zlangan maqsad- Streptokokk avlodlaridagi bakteriyalarning o'g'iz bo'shlig'iga ta'sirini qish-bahor mavsumida talabalar orasida o'rganish.

Tadqiqot materiyallari va uslublari- Tadqiqotimizda qish-bahor mavsumida talabalarining og'iz bo'shlig'idan surtma olinib, go'shtli peptonli agarga ekib, streptokokk koloniyalarini tekshirib, tonzillit va karies kasalliklari aniqlandi. Tajribaga Tibbiy proflaktika fakultetining talabalari tanlab olingan, shulardan 29 tasi o'g'il bola, 24 tasi qiz bola.

Tadqiqot natijlari - Tadqiqotimizga Tibbiy proflaktika, 3-kurs talabalari jalb etildi. Ish o'qituvchilar nazorati ostida olib borildi. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatidan steril paxta tamponlar bilan lunj qavati olindi va darhol go'shtli-peptonli agarga glyukoza bilan ekildi. 24 soat davomida termostatga qo'yildi. Ikkinchi kuni bakteriyalar koloniyasini sanab turlari aniqlandi. Tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, biz Streptococcus mutans, Streptococcus viridans, Escherichia coli va Veylonella bakteriyalarini topdik.

Og'iz bo'shlig'ida sog'liq uchun foydali va zararli bo'lgan turli xil mikroorganizmlar mavjud. Streptococcus mutans bakteriyalari tabiiy ravishda tish

yuzasida har qanday yoshdagi odamlarda paydo bo'ladi va to'planadi. S. mutans bakteriyalari bizga katta zarar keltiradi, chunki ular birinchi navbatda karioz jarayonning rivojlanishi va kovaklarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Streptococcus sobrinus bilan bir qatorda, Streptococcus mutans saxarozani sut kislotasiga aylantirib, tishlarning parchalanishida katta rol o'ynaydi. Ushbu jarayon natijasida og'izda hosil bo'lgan kislotali muhit yuqori darajada minerallashgan tish emalining chiziqli bo'lishiga va parchalanishga moyil bo'lishiga olib keladi. Saxaroza Streptococcus mutans tomonidan yopishqoq hujayradan tashqari dekstran asosidagi polisaxarid ishlab chiqarish uchun ishlatiladi, bu ularni blyashka hosil qilish uchun bir-biriga bog'lash imkonini beradi. Streptococcus mutans, dekstran fermenti yordamida saxarozani substrat sifatida ishlatib, dekstran ishlab chiqaradi. Saxaroza Streptococcus mutansda polisaxaridni hosil qilish uchun ishlatishi mumkin bo'lgan yagona shakardir. U og'iz bo'shlig'ida so'lak glikoproteinlari bilan bog'langan oqsilni ishlab chiqaradi, bu esa Streptococcus viridans. Ushbu streptokokklar tabiiy muhitda juda keng tarqalgan va odatda sog'lom odam uchun xavf tug'dirmaydi, ammo turli xil immunitet tanqisligi holatlarida Streptococcus viridans bir qator jiddiy kasalliklarga olib kelishi mumkin - endokardit, pnevmoniya, faringit, nefrit, tug'ruqdan keyingi sepsis, revmatizm, teri va yumshoq to'qimalarning ko'plab kasalliklari, invaziv infeksiyalar.

Veylonella. Ular inson organizmi bilan birga yashasada, boshqa holatda turli xil kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ko'p jihatdan, mikrofloraning holati tunda kamroq bo'ladigan so'lak miqdoriga bog'liq. Veylonella periodontogen mikroorganizmlarga tegishli bo'lib, ular ko'pincha kasalliklardan ta'sirlangan tishlarning yuzalarida (yoriqlar va interdental yuzalar) tanlab to'planib, tish plitalarini hosil qiladi. Emal yuzasida organik kislotalarning hosil bo'lishi demineralizatsiya jarayonlarini kuchaytiradi, bu esa mikroorganizmlar va ularning metabolik mahsulotlari bilan to'ldirilgan emalda mikro bo'shliqlar paydo bo'lishiga olib keladi. Tish blyashka mikroflorasi, shu jumladan veylonella, periodontal to'qimalarda yallig'lanish jarayoni bo'lgan periodontitning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Sigaret va nos chekuvchi insonlarda ko'proq kuzatiladi.

Tonzillit. Kasallik mavsumiy bo'lib, o'zini sovuq mavsumda, ya'ni organizmning immunitet himoyasi pasayishida namoyon qiladi. U gavjum joylarda surunkali yoki o'tkir tonzillit bilan og'rigan bemor bilan aloqada bo'lgan havo tomchilari orqali tarqaladi. Kasallikka bakteriyalar- streptokokklar va stafilokokklar sabab bo'ladi. Kamroq hollarda, boshqa bakteriyalar va zamburug'lar sabab bo'ladi. Kasallikning o'tkir kechishi natijasida harorat surunkali bosqichga qaraganda sezilarli darajada (40 darajagacha) ko'tarilishi mumkin. Tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, chekuvchi o'quvchilarning 6 nafarida og'iz bo'shlig'ida ham streptokokklar va veylonellalar borligi aniqlandi. Surtma ertalab och qoringa, lunj va tanglay shilliq qavatidan steril paxta bilan olindi. Keyinchalik, laboratoriyada material standart mikrobiologik muhitga ekildi va mikroorganizmlarning sof kulturasi ajratildi.

Xulosa- Shunday qilib, talabalar orasida 12 ta talaba tonzillit bilan kasallangan, 17ta talabaning tishlari orasida karies bo'lgan. Tekshirish natijasida 48ta talabalarning og'iz bo'shlig'ida St.mutans, 23 ta talabalarda St.viridans, 6 ta talabalarda St. mutans, St.viridans va Veilonella aniqlangan. Bizlar talabalar orasida mavrak va rayhon damlamalaridan foydalanib ertalab va kechqurun og'iz bo'shlig'ini chayishni tavsiya etdik. Chunki, mavrak dezinfeksiyalovchi, yallig'lanishga qarshi, yumshatuvchi, qon to'xtatuvchi xususiyatga ega. Rayhon esa mustahkamlovchi, og'riqni kamaytiruvchi, mikroblarni o'ldiruvchi, antiseptik va immunitetni oshirish xususiyatiga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Faiziboev Pirmamat Normamatovich, Ibragimova Fairuza Sobirovna, Makhmaraimov Fuzail Ilkhomovich, Abdurakhmonova Shakhnoza Sokievich, & Fayziboev Bekzod Pirmamatovich. (2024). HYGIENIC ASSESSMENT OF CRITERIA FOR SAFETY AND NUTRITIONAL VALUE OF FRUITS AND VEGETABLES. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(1), 77–81.

2.Faiziboev Pirmamat Normamatovich, Fakhritdinov Shokhrukh Fakhritdinovitch, Roziklov Dilshod Allayorovich, Obloberdiev Okhunjon O'tkirovich, & Fayziboev Bekzod Pirmamatovich. (2024). ESTIMATES OF CONSUMPTION OF CONFECTIONERY PRODUCTS IN THE AVERAGE DAILY DIETS OF THE POPULATION IN THE SUMMERAUTUMN SEASON. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(1), 142–

3 Мусаева О. Т., Элмуродова Л. Х., Халилова Б. Р. Старение Как Область Научных Исследований И Организация Гериатрической Медицинской Помощи //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 317-322.

4. Tuxtarov B. E. et al. Scientific progress. 2023. № 2 //URL: <https://cyberleninka.Ru/article/n/o-zbekistonda-terileyshmaniozining-tarqalishi-va-uning-oldini-lish-chora-tadbirlari> (дата обращения: 30.03. 2023)

5. Korovina N.A., Zakharova I.N., Dmitrieva Yu.A. Sovremennye predstavleniya o fiziologicheskoy roli vitamina D u zdorovykh i bolnykh detey // Pediatriya. Jurnal im.G.N. Speranskogo. — 2008. — Т. 87. — № 4. — S. 124–130. [Korovina NA, Zakharova IN, Dmitrieva YA. Current ideas about the physiological role of vitamin Din healthy and sick children. Pediatriia. 2008;87(4):124-130. (In Russ.)]

6. Vitamin D i reproduktivnoe zdorove jenshiny / Pod red. I.Ye. Zazerskoy. — SPb.: Eko-Vektor, 2017. [Vitamin D and women's reproductive health. Ed by I.E. Zazerskaya. Saint Petersburg: Eco-Vector LLC; 2017. (In Russ.)]

7. Malsev S.V., Mansurova G.Sh., Zakirova A.M. i dr. Rol vitamina D v sisteme mat — plasenta — plod. Prakticheskaya meditsina. 2016;1(93):26–31.

8. Рахимова Д. Д., Шайхова Г. И. 7-17 YOSHLI MAKTAB OQUVCHILARINING JISMONIY RIVOJLANISHINI VAHOLASH //журнал репродуктивного здоровья и уро-нефрологических исследований. – 2022. – Т.